“TARBIYA JARAYONIDA INKLYUZIV QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH YO’LLARI’’

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

PEDAGOGIKA FAKULTETI PEDAGOGIKA YO'NALISHI

4- BOSQICH TALABASI YO'LDOSHEVA GULHAYO

QAHRAMON QIZI.

ANNATATSIYA

Ushbu maqolada inklyuziv ta'limning ta'lim muassasalarida o'quvchi yoshlar ongida singdirib borish va inklyuziv ta'limni samarali tashkil etish, rivojlantirish haqida fikr yuritiladi.

KALIT SO'ZLAR: Inklyuziv ta'lim, inklyuziv qadriyatlar, insoniylik.

ABSTRACT: This article discusses the inculcation of inclusive education in the minds of young students in educational institutions and the effective organization and development of inclusive education.

KEYWORDS: Inclusive education, inclusive values, humanity.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматриваются вопросы внедрения принципов инклюзивного образования в сознание молодых студентов в образовательных учреждениях, а также эффективная организация и развитие инклюзивного образования.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Инклюзивное образование, инклюзивные ценности, гуманизм.

KIRISH.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida ko’pgina yangilanishlar olib borilmoqda. Bugungi globallashuv va ijtimoiy yangilanishlar sharoitida ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan eng muhim vazifalardan biri — har bir shaxsning huquq va imkoniyatlarini teng ta’minlaydigan inklyuziv ta’lim muhitini yaratishdir. Ayniqsa, tarbiya jarayonida inklyuziv qadriyatlarni shakllantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarining dolzarb yo‘nalishiga aylanib bormoqda. Chunki zamonaviy jamiyatda bag‘rikenglik, tenglik, hurmat, hamkorlik kabi insonparvar qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirish ijtimoiy barqarorlikning muhim omili hisoblanadi.

Tarbiya jarayonida inklyuziv qadriyatlarni shakllantirish o‘quvchilarda ijtimoiy adolat, o‘zaro hurmat, hamdardlik, empatiya va tolerantlik kabi sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv muhitda tarbiyalangan bolalarda kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy moslashuvchanlik va ijobiy ijtimoiy xulq ko‘rsatkichlari yuqori bo‘ladi. Shu bois umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tarbiya jarayonini inklyuziv qadriyatlar asosida tashkil etish ilmiy-metodik jihatdan puxta yondashuvni talab etadi. Mamlakatimizda ham inklyuziv ta’limni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Har bir bola, uning jismoniy yoki aqliy imkoniyatlaridan qat’i nazar, sifatli ta’lim va tarbiya olish huquqiga egadir.”[1] Ushbu g‘oya ta’lim tizimida inklyuziv yondashuvni keng joriy etish zaruratini ilmiy va amaliy jihatdan asoslab beradi. Mazkur bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi shundaki,

amaliyotda inklyuziv ta’lim elementlari joriy etilayotgan bo‘lsa-da, tarbiya jarayonida inklyuziv qadriyatlarni tizimli shakllantirishning pedagogik mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. O‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi, tarbiyaviy ish shakl va metodlarining moslashuvchanligi hamda

inklyuziv muhitni baholash mezonlari bo‘yicha ilmiy tavsiyalarni takomillashtirish zarurati mavjud.

Inklyuzivlik-bu har bir inson, qandaydir farqlarga qaramay, jamiyatning to’liq a’zosi sifatida qabul qilinishi va hurmat qilinishi hamda barchaga o’ziga xosliklardan qat’iy nazar bir xil imkoniyatlar yaratilganligini anglatuvchi tushuncha. Bu jamiyatdagi barcha a’zolar, ular kim bo‘lishidan qat’iy nazar, teng imkoniyatlarga ega bo‘lishlarini anglatadi. Inklyuzivlik har bir insonning shaxsiy qadr-qimmatini tan olish va hurmat qilishni talab qiladi. Bu boshqalarning o‘ziga xosligini, shaxsiy tanlovlarini va turmush tarzini qadrlashni anglatadi. Inklyuzivlik har qanday kamsitish va cheklovlarga qarshi turadi. Bu har qanday jamiyat yoki tashkilotda barcha a’zolarning huquqlarini himoya qilish va ularning imkoniyatlarini cheklovlarsiz amalga oshirishini ta’minlashni anglatadi. Inklyuzivlik barcha guruhlar va shaxslarning jamiyatda yoki tashkilotda ishtirokini qamrab olishni ta’minlaydi. Bu ularning ehtiyojlarini, fikrlarini va g‘oyalarini inobatga olishni, ularni qaror qabul qilish jarayonlariga jalb qilishni anglatadi. Bu har bir insonning huquqlari va imkoniyatlarini himoya qilish, ularning jamiyatda to‘liq ishtirokini ta’minlash orqali ijtimoiy tenglikni oshiradi. Inklyuzivlik ijtimoiy birlik va birdamlikni mustahkamlaydi. Bu turli guruhlar o‘rtasida hamkorlikni, tushunishni va o‘zaro hurmatni oshirishga yordam beradi. Inklyuzivlik orqali turli xil fikrlar, tajribalar va g‘oyalar jamiyat yoki tashkilotga jalb qilinadi, bu esa innovatsiyalar va rivojlanishni rag‘batlantiradi. Turli xil qarashlar va tajribalar orqali yangi va samarali yechimlar topish imkoniyati oshadi. Inklyuzivlik shaxsiy va jamiyat rivojlanishini ta’minlaydi. Har bir insonning o‘z salohiyatini to‘liq amalga oshirishiga yordam berish orqali jamiyatning umumiy rivojlanishiga hissa qo‘shiladi. Inklyuzivlik oila uchun muhim, chunki bu qadriyat oilada o‘zaro hurmat, qabul qilish va birdamlikni mustahkamlaydi. Inklyuzivlik orqali har bir oila a’zosi o‘zini qadrli va e’tiborga loyiq his qiladi, bu esa o‘z navbatida oila ichida barqarorlik va mehr-muhabbatni kuchaytiradi. Farzandlarga inklyuzivlik

qadriyatlarni singdirish ularni turli xil insonlarga nisbatan bag‘rikeng va qabul qiluvchi shaxslar sifatida tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi.Yangi O‘zbekistonda “Inson qadri uchun” degan bosh g‘oya – uning insonparvarlik siyosatining asosiy tamoyilini ham ifoda etadi. “Biz barcha fuqarolar, jumladan, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun bir xil imkoniyatlar amal qiladigan inklyuziv jamiyatni barpo etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiramiz” degan edi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-fevraldagi PQ-68-son qarori bilan tasdiqlangan “2025-yilgi Navro‘z umumxalq bayramining g‘oyaviy-badiiy konsepsiyasi”ning ikkinchi – “Insonparvar va inklyuziv qadriyatlar” bo‘limida “hozirgi kunda samarali ijtimoiy siyosat olib borish, inklyuzivlik davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanganligi” va “Yangilangan Konstitutsiyamizdagi «O‘zbekiston — ijtimoiy davlat» degan prinsipial qoida ham aholiga ijtimoiy yordam ko‘rsatish, hech kimni mehr va e’tibordan chetda qoldirmaslikni doimiy ishlaydigan tizimga aylantirishni taqozo etishi” belgilandi. Professor Q. Nazarovga ko‘ra, “insonda olam, tabiat, jamiyat va o‘zga odamlarni, hayot, umr va boshqalarni qadrlash tuyg‘usi bor. Bu tuyg‘u ularning qadrini anglab olish, qadriyatni idrok qilish, uning ahamiyatini his qilish kabi insoniy xususiyatlar bilan uyg‘unlashib ketgan” “Inklyuziv qadriyatlar” tushunchasining hayotimizga kirib borishi va inklyuziv jamiyatga o‘tish jarayonida fuqarolarimiz ongida va qalbida shunday qadriyatlarning qaror topishida o‘z navbatida ta’lim va tarbiya xal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy pedagogikada inklyuziv qadriyatlarga jamiyatdagi me’yorlar va ideallar bilan bir qatorda inklyuziv madaniyatning muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Jamiyatning inklyuziv madaniyati esa inklyuziv ta’limni muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy omillaridan biridir. Inklyuziv ta’limni avvalroq joriy qilishga kirishgan mamlakatlar tajribasida ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan imkoniyati cheklangan bolalar sonining ko‘payishi bilan birgalikda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish uchun tegishli texnologiyalarning ishlab

chiqilmaganligi, axloqiy qadriyatlarni shakllantirish uchun alohida ehtiyojli bolalar va me'yoriy rivojlangan bolalarning imkoniyatlari hisobga olingan zamonaviy ta'lim talablari mavjud emasligi va bunday sharoitda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda maktab o'quvchilarini pedagogik qo'llab-quvvatlashning yagona tizimining yo'qligi kabi bir qator muammolarga duch kelinayotganligi ma'lumdir Ma'lumki, "har qanday qadriyat "o'z holicha mavjud bo'lmaydi. U ma'lum bir jamiyatda individ va ijtimoiy guruh harakatlarining tavsifnomasi sifatida namoyon bo'ladi" Bizningcha, bugungi sharoitda umumta'lim maktablari o'quvchilarida inklyuziv qadriyatlarni shakllantirishda ta'lim muassasasining ota-onalar hamkorligi eng muhim mexanizmlardan biri hisoblanadi. Avvalo, ta'lim jarayonida boshlang'ich sinflardan boshlab, o'quvchilarga insonparvarlik, bag'rikenglik, mehr-oqibat tushunchalarini o'rgatish va ruhda tarbiyalash bilan bir qatorda ularning yosh xususiyatlariga mos holda inklyuziya, inklyuziv ta'lim, inklyuziv madaniyat va inklyuziv qadriyatlar haqidagi tasavvur va bilimlarini ham shakllantirib borish zarur bo'ladi. Keyingi bosqichi esa beriladigan bilimlar ham murakkablashib boradi va har bir bosqichda me'yoriy rivojlanishdagi o'quvchi imkoniyati cheklangan o'quvchi bilan bir sinfda, bir partada o'qishga hamda uni maktab hayotining turli jabhalarida to'g'ri qabul qilishga, tushunishga va qo'llab-quvvatlashga ruhan va aqlan tayyor bo'lishi lozim bo'ladi.

Inklyuziv ta'lim kontseptsiyasi zamonaviy ta'lim falsafasida teng huquqlilik (equity), farqlilikni hurmat qilish, ijtimoiy adolat va ishtirokchilik kabi qadriyatlarni asosiy tamoyillar sifatida belgilaydi. Bu qadriyatlar nafaqat ta'lim siyosati va dasturlarida ifodalanadi, balki ularning amaliy tatbiqi ta'lim muassasalari madaniyati va pedagogik amaliyot orqali shakllanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inklyuziv qadriyatlar — o'quvchilarning ijtimoiy integratsiyasini, hamkorlik madaniyatini va hamma uchun teng ta'lim imkoniyatini ta'minlovchi pedagogik muhitga asos bo'ladi. Bunda qadriyatlar ta'lim jarayonida teng darajada qo'llanilganda inklyuziv ta'limning barqarorligi va samaradorligi

oshadi. Ilmiy tadqiqotlarda inklyuziv qadriyatlarning asosiy komponentlari sifatida equity (adolat), equality (tenglik), communality (jamiyat hissi) va respect for diversity (turli xillikka hurmat) aniqlangan. Bu komponentlar o‘quvchilarning faolligini, ijtimoiy qo‘llabquvvatlashni va har bir shaxsning ta’lim jarayoniga to‘la jalb qilishini ta’minlashda markaziy o‘rin tutadi.

Markaziy Osiyoda bu masala ancha yillardan buyon tadqiqotchilarni qiziqtirib keladi. Olimlar ham siyosat va jamiyat arboblari, pedagog va talabalar, jamoat uyushmalarining faollari va oddiy fuqarolar ham bu masalaga ko‘proq e’tibor bermoqdalar. O‘zbekistonda yanada demokratiyani chuqurlashtirish va fuqarolik

jamiyati asoslarini barpo etishdagi manfaatdor bo‘lgan har bir kishi O‘zbekiston xalqlarining falsafiy-siyosiy va huquqiy merosini yaxshi bilishi, hamda mutafakkirlar ilgari surgan g’oyalarga muojaat qilishi kerak.

Ko‘pgina mashhur olimlar bu ta’limotning tarkibiy qisimlariga murojaat etib, mazkur muammoning turli-tuman ma’nolarini ilgari surganlar. Bu esa, o‘z navbatida, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga olib keldi va ming yillik falsafaning tarixigaqiziqishi borgan sari oshirib, uni o‘rganuvchilar doirasini kengaytirib kelmoqda.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilarning inklyuziv qadriyatlarni o‘zlashtirish darajasi va amaliyotga tatbiq etish motivatsiyasi sinfdagi hamma o‘quvchilarning ehtiyojlariga mos sharoit yaratishga yo‘naltirilgan. Bu qadriyatlar asosida ishlab chiqilgan pedagogik yondashuvlar, xususan “inclusive pedagogy”, turli qobiliyatdagi talabalarning faol ishtirokini rag‘batlantiradi va ularning o‘zaro hurmat asosida o‘rganish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, inklyuziv qadriyatlar ta’lim muhitining ijtimoiypsixologik komponenti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu muhit o‘quvchilarda hamkorlik, empatiya va tenglik hissini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar ta’lim muhitida qadriyatlar amalga tatbiq etilganda, o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvi, o‘zaro hurmat, empatiya va

ijtimoiy aloqalar sezilarli darajada kuchayishini ko‘rsatmoqda. Inklyuziv qadriyatlarni shakllantirish jarayoni ta’limtarbiya tizimida ishtirok etuvchi barcha subyektlar — o‘qituvchilar, otaonalar va jamiyat — bilan hamkorlikda olib borilishi kerakligi ham ilmiy adabiyotlarda tasdiqlangan. Bu jarayon faqat dars bilan cheklanmay, balki ta’lim siyosati, ta’lim dasturlari va ijtimoiy qo‘llabquvvatlash mexanizmlari orqali pedagogik strategiyalar bilan uyg‘unlovchi amaliyot bo‘lishi zarur. Inklyuziv qadriyat — bu nafaqat ta’lim siyosati elementi, balki jamiyat taraqqiyotini belgilovchi madaniy-me’yoriy mezondir. U inson huquqlari, tenglik va ijtimoiy adolat tamoyillariga tayangan holda, har bir shaxsning jamiyatda to‘laqonli ishtirokini ta’minlashga qaratilgan. Shu bois inklyuziv qadriyat zamonaviy demokratik jamiyatning ajralmas ideologik va axloqiy poydevori sifatida e’tirof etiladi. U ijtimoiy xilma-xillikni (nogironlik, jins, millat, til, din, ijtimoiy kelib chiqish va boshqa farqlarni) tabiiy ijtimoiy hodisa sifatida qabul qiladi hamda farqlilikni cheklov emas, balki rivojlanish omili sifatida talqin etadi.

Ayniqsa, yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan, nogiron, rivojlanishida nuqsoni bor bolalarning ijtimoiy himoyasi hamisha davlat va jamiyatning ustuvor vazifasi hisoblangan. Ushbu vazifani amalga oshirish borasida O‘zbekiston Respublikasida rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan kishilarning huquq va erkinliklarini, teng imkoniyatlarini ta’minlash, turmush faoliyatidagi cheklanish, chegaralarni bartaraf etish, ta’limni tashkil etish va boshqarishga zamonaviy yondashuv, uning sifati va samaradorligini oshirish, jamiyatda aholining turli qatlamlari uchun ta’limning uzviylik va uzluksizligini ta’minlash borasida talaygina ishlar amalga oshirib borilmoqda. Bolalik bosqichida inson psixologo-pedagogik jihatdan kuchli ta’sirlanadi. O‘sib kelayotgan bola organizmi, uning miya tuzilishining ichki imkoniyatlari chegarasizligini inobatga olgan holda tashkil etilgan korreksion-pedagogik, psixologik hamda tibbiy ishlar bolaning birlamchi nuqsonini kamaytirib, ikkilamchi nuqsonlarning oldini olishga yordam beradi. Bularning

hammasi rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolani mustaqil, hech kimga qaram bo‘lmagan holda hayot kechirishga tayyorlash omillaridir. Bolalarning ijtimoiy reabilitatsiyasi (tiklash) va ijtimoiy adaptatsiyasi (moslashuvi)-bu nafaqat qalbdagi sifatlarni, balki yangi texnologiya va innovatsiyalarning paydo bo‘lishi bilan tadrijiy rivojlanib boradigan bu nozik sohada professional yondashuvni talab qiladigan sermashaqqat mehnatdir. Bu sohaning takomillashuvida nogironligi bo‘lgan bolalar bo‘yicha idoralararo muhtoj bolalarning ijtimoiy moslashuvi holatini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi. Respublikamizda ijtimoiy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tomonidan 2007 yilda «O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim» loyihasi amalga oshirilgan bo‘lib, loyihada O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Navoiy shahridagi «Umr» imkoniyati cheklangan bolalarga yordam berish markazi, Samarqand shahridagi «Hayot» nomli nogironlarga yordam berish markazi, Jizzax shahridagi «Istiqbolli avlod» markazi, Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahridagi «Umid» tashabbuslarga ko‘mak berish va rivojlantirish markazi, Termiz shahridagi «Imkon» imkoniyati cheklangan bolalar va oilalarga ko‘mak berish markazi, Farg‘ona viloyatining Qo‘qon shahridagi «Ziyo» maxsus zaruratli bolalarga ijtimoiy ko‘mak berish markazi, maqsadli hududlar hokimliklari, O‘zbekistondagi Shvetsariya elchixonasi hamkorlik qilishdi. Ushbu loyiha doirasida Toshkent, Guliston, Qarshi, Samarqand, Termiz, Andijon, Qo‘qon, Nukus, Buxoro, Urganch shaharlarida joylashgan ayrim maktabgacha ta’lim muassasa, maktab, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda imkoniyati cheklangan bolalar aralash guruhlarda inklyuziv texnologiya asosida ta’lim-tarbiya olishdi.

Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalar ta’lim-tarbiyasi va ularning ijtimoiy hayotga moslashuviga qulay sharoitlar yaratib berilmoqda. Ularni jamiyatga integratsiya qilish, avvalo, imkon qadar salomatligini tiklash maqsadida «Imkoniyati cheklangan bolalar uchun umumiy ta’lim loyihasi» asosida ish yuritib

kelinmoqda. Bunda, asosan, inklyuziv ta’lim imkoniyatlaridan foydalanish ko‘zda tutilmoqda. Natijada inklyuziv ta’limni tashkil etishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini, o‘ziga xos imkoniyatlarini2 chuqurroq o‘rganish, u bilan bog‘liq muammolarni aniqlash, samaradorlik jihatlarini asoslab berish dolzarb ilmiy muammoga aylanmoqda. Chunki inklyuziv ta’lim usuli barcha bolalarning ruhiy jismoniy holatidan qat’iy nazar ta’lim jarayonida to‘laqonli ishtirok etishini ta’minlashga qulay imkoniyat yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.P.f.d., prof. R.X.Djurayev, p.f.d. O‘.Q.Tolipov, p.f.d., prof. R.G‘.Safarova, t.f.d., prof. X.O.To‘raqulov, p.f.n. M.E.Inoyatova, p.f.n. M.S.Divanova “PEDAGOGIK ATAMALAR LUG‘ATI” Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika Fanlari Ilmiy Tadqiqot Instituti, Toshkent – 2020

2.R.G‘. Safarova, R.H. Jo‘raev, “Pedagogika Ensiklopediya (2 jild)” “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”.-T.: Davlat ilmiy nashriyoti,

3. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TIL VA ADABIYOT INSTITUTI, E.Begmatov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov, T.Mirzayev(rahbar), N.To`xliyev, E.Umarov, D.Xudoyberganova, A.Hojiyev “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”: - T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti,

4.Inklyuziv ta’lim.Gospital pedagogoika. U.U. Turamuratov, Z.M. Qurbonova, O.K. Mamatmurotov, A.E. Oltiboyev, S.E. Zaripova. O’quv qo’llanma-“ILM-21” Nashiriyot 2024 173-bet

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-son Qarori.

6. https://yuz.uz/uz/news/inklyuziv-talim--barcha-uchun-moljallangan-talim

7. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova. Inklyuziv ta’lim: nazariya va metodika (darslik). Chirchiq-2022-yil.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-dekabrdagi PQ–42-sonli qarori. Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyani amalga oshirish bo‘yicha Milliy dastur.